

# **Surxondaryolik turli millat vakillariga “Xalqlar do’stligi” nishoni topshirildi**



Mukofotlanganlar orasida 1 nafar vohadoshimizning I darajali “Salomatlik” ordeni bilan, 8 nafar surxondaryolikning “Xalqlar do’stligi” ko’krak nishoni bilan taqdirlangani mamlakatimizda turli millat vakillari xizmatlarining yuksak e’tirofi natijasidir.

Surxondaryo viloyati hokimligida ana shu davlat mukofoti va ko’krak nishonini topshirish marosimi o’tkazildi. Mukofotlarni Vazirlar Mahkamasi huzuridagi millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do’stlik aloqalari qo’mitasi raisining maslahatchisi G’ayratilla Shukurov, Surxondaryo viloyati hokimining birinchi o’rinbosari Fayzulla Mamanov hamda viloyat hokimining o’rinbosari Ilhom Saparov o’z egalariga topshirdi.